O‘ZBEK TILIDA MEHNAT KONSEPTI

Axrorova Diyora Shuxrat qizi
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti
4-bosqichi talabasi
e-mail: axrorovadiyora8@gamil.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlari bo‘lgan kognitologik va lingvokulturologik jihatdan “konsept” tushunchasi tadqiq etilgan. Maqolada S.A. Askoldov, Y.S. Stepanov, J. Lakoff va o‘zbek olimlaridan Sh. Safarov, D. Xudoyberganovalarning nazariy qarashlari orqali “mehnat”konsepti tahlil qilingan. Tadqiqot obyekti sifatida tanlab olingan, o‘zbek lisoniy manzarasidagi “mehnat” konsepti, uning etimologik asosi va o‘zbek xalq maqollaridagi kognitiv-semantik xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: kognitologiya, konsept, mehnat, lingvokulturologiya, lisoniy manzara, metafora, kalit so‘z, o‘zbek xalq maqollari**.**

Annotation. The article explores the notion of "concept" from the perspectives of cognitive linguistics and linguoculturology, which are among the most relevant fields of modern linguistics. The concept of "labor" (mehnat) is analyzed through the lens of theoretical views proposed by S.A. Askoldov, Yu.S. Stepanov, G. Lakoff, as well as Uzbek scholars Sh. Safarov and D. Khudayberganova. The study focuses on the "labor" concept within the Uzbek linguistic world-view, revealing its etymological foundations and cognitive-semantic characteristics as reflected in Uzbek folk proverbs.

Keywords: cognitive linguistics, concept, labor, linguoculturology, linguistic world-view, metaphor, key word, Uzbek folk proverbs.

Аннотация.В данной статье исследуется понятие «концепт» с точки зрения актуальных направлений современной лингвистики — когнитологии и лингвокультурологии. В работе анализируется концепт «труд» на основе теоретических взглядов С.А. Аскольдова, Ю.С. Степанова, Дж. Лакоффа, а также узбекских ученых Ш. Сафарова и Д. Худайбергановой. В качестве объекта исследования выбран концепт «труд» в узбекской языковой картине мира; раскрываются его этимологические основы и когнитивно-семантические особенности в узбекских народных пословицах.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, концепт, труд, лингвокультурология, языковая картина мира, метафора, ключевое слово, узбекские народные пословицы.

Globallashuv davrida yashar ekanmiz,turli sohalar shu bilan birga tilshunoslik ham rivojlanib bormoqda.Keyingi yillarda tilga so‘zlar yig‘indisi emas,insonning milliy dunyoqarashi,ongi va tafakkurini,uning hayot tarzini aks ettiruvchi vosita sifatida qarash shakllandi.Shuning uchun ham zamonaviy tilshunoslikda kognitologiya, shu jumladan, konsept masalasi dolzarb masala sifatida ko‘rilmoqda.

Konsept tushunchasi XX asrning birinchi yarmida paydo bo‘la boshlagan bo‘lib,S.A. Askoldov, D.S. Lixachev, Y.S. Stepanov, J. Lakoff, A. Vezjbitska kabi yevropa olimlarining nazariyalari bilan bir qatorda, Sh. Safarov, N. Mahmudov, A. Nurmonov, D. Xudoyberganova kabi o‘zbek olimlarining ilmiy asarlarida ham konsept tushunchasiga berilgan ta’rifni ko‘rishimiz mumkin.Xususan, S.A. Askoldovning 1928-yilda chop etilgan “Konsept va so‘z” maqolasi, Y.S. Stepanovning “Konstantalar: Rus madaniyati lug‘ati” asari, tomonidan 1980-yilda chop etgan “Biz yashayotgan metaforalar”, Anna Vezjbitskaning “Semantik primitivlar” va “Madaniyatning kalit so‘zlari”g‘arb tilshunosligining kognitiv tilshunoslikka oid noyob asarlari hisoblansa,o‘zbek tilshunosligidan Shaxriyor Safarov 2006-yilda “Kognitiv tilshunoslik”nomli fundamental monografiyasini yaratdi,qolaversa N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqiy yo‘llarini izlab…”maqolasida,D.Xudayberganovaning “O‘zbek tilidagi badiiy

matnlarning antroposentrik talqini” asarida ham konsept haqidagi qarashlar o‘z aksini topgan.

Masalan,kognitiv tilshunoslikning tamal toshini qo‘ygan **Askoldov** fikricha,konsept deb bir jinsli narsalarning ma’lum bir turiga tegishli ma’lumotlarni yoinki ma’nolarni ongimizda almashtirib qo‘llasa bo‘ladigan kognitiv tuzilma yo sxemaga konsept deyiladi.Olim aytmoqchiki,inson biror narsa haqida o‘ylaganda,uning ongida o‘sha narsa haqidagi mayda-chuyda fikrlarni keltirmaydi, chunki tafakkurida umumlashma sxema ya’ni konsept bo‘ladi.Masalan,”mehnat” konsepti deganda birdan dehqon yoki hunarmand va ularning ish joyi ya’ni dala,ustaxona,ish-qurollari:ketmon,tesha keladi.

Xususan,konsept tushunchasini keng ma’noda qo‘llab,uning lingvo-madaniy jihatlarini ochib bergan olim **Stepanov** talqin etishicha,konsept deganda inson tafakkurida madaniyatning,qadriyatlarning va urf-odatlarning joylashgan birlamchi birligi ,boshqacha qilib aytganda, “klubogi”ni nazarda tutadi.Shuningdek,olim: “Har bir so‘z nafaqat tushuniladi,balki his qilinadi,turli hissyotlarni so‘z orqali yashasa bo‘ladi degan qarash tarafdori”.Masalan,”mehnat” konseptini oladigan bo‘lsak,u orqali o‘zbek xalqi “halol rizq”, ”to‘kin-sochinlik”, “azob-uqubat”,”baraka”, “birdamlik” va “ahllik” tushuniladi va bu tushunchalar his qilinadi ham.

Bundan tashqari konsept tushunchasini metaforik omillar bilan bog‘lagan tilshunoslar **Jorj Lakoff va Mark Jonson** uni boshqacha ifodalaydi.Ularning fikricha,bizning hayot tarzimizda,faoliyatimiz va nutqimizda bevosita metaforalarning o‘rni beqiyosdir.Inson tushunchani idrok etar ekan,boshqa bir tushuncha bilan uni aniqlashtiradi degan nazariyani ilgari suradi olimlar.Haqiqatan ham, e’tibor beradigan bo‘lsak, o‘zbek xalqi mentalitetida “mehnat” konsepti doirasida bunday metaforalarni yaqqol ko‘rishimiz mumkin.”Itday charchadim”, yoki “Eshakday mehnat qildi” o‘xshatishlarida bu sema yaqqol bilinadi,yoki “Mehnat – tuman boylik” , “Mehnat – lazzatli ovqat” kabi.

Konsept tushunchasini madaniyat bilan bog‘lab,har bir tilda,uning leksikologiyasida o‘sha xalqning bor qadriyatini,milliy boyligi,dunyoqarashi va madaniyatini o‘zida

jamlagan “kalit so‘zlar” bo‘ladi degan g‘oya asoschi **Anna Vezjbitska** aytganidek:”Har bir til lingvokulturologik jihatdan u mansub bo‘lgan millatning o‘zligini, o‘tmishi va bugunini o‘zida aks ettiradi”.Masalan,”mehnat”konsepti orqali o‘zbek xalqi qanchalik azob-uqubatlarni boshdan kechirganini, yoinki qadimdan mehnatkash,ahil bo‘lgani anglasak,”mehnat” konsepti periferiyasidagi “hashar” so‘zi orqali esa xalqimiz qon-qoniga singib ketgan birdamlikni ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbek tilshunosligida kognitologiya sohasini tadqiq etgan professor **Shaxriyor Safarov** konseptga “ma’lumotlar umumlashmasi”sifaitda qaraydi.Olim aytganidek, konseptlar orqali biz insonning olamning lisoniy manzarasini qanday tafakkur qilishini tushuncha yoki lisoniy birliklar orqali tahlil qilib bera olamiz.Shuningdek bu orqali o‘sha xalqning tafakkurini,olamni tushunish modelini anglaymiz.Masalan,”mehnat” konsepti orqali o‘zbek xalqidunyoqarashi ochiladi. Mehnat deganda faoliyat, harakatdan tashqari charchoq, halol rizq, baraka, qiyinchilik kabi, yoki mardikor, ishchi, hunarmandlar tushunchalar ham birgalikda anglashiladi.

Shuningdek,o‘zbek olimlaridan biri D.Xudayberganovaning antroposentrik va lingvokulturologik jihatdan konseptni ochib beradi.Olimaning ta’kidlashicha,har qanday tushuncha badiiy asarda badiiy to‘qima olgach,obrazlar va turli ramzlar orqali qayta jonlanadi,lingvo-madaniy bo‘yoq oladi.Buning yaqqol misolini o‘zbek xalq ertaklarida mehnatning dangasalik,egrilik,to‘g‘rilik,halollik va mehnatsevarlik bilan o‘zaro badiiy uyg‘unlashganini misol sifatida keltirsak bo‘ladi.

O‘zbek tilida “mehnat’’ konsepti turli ma’nolarni bildiradi.Masalan, ”O‘zbek tilining izohli lug‘atida shunday ta’rif berilgan:” 1. Biror maqsad uchun qaratilgan aqliy yoki jismoniy faoliyat; ish.”Aqliy mehnat, jismoniy mehnat. mehnat intizomi. mehnatda chiniqmoq kabi birikmalar bilan ko‘rsatilgan.

2. Biror maqsad uchun sarflanadigan kuch, g‘ayrat, harakat kabi ma’nosi ham berilgan[1].Etimologik lug‘atda esa quyidagicha ta’rif bor: “Bu arabcha so‘z bo‘lib mihnat(un) shakliga ega,asli tekshirdi,sinadi ma’nosini anglatuvchi mahana fe’lidan

yasalgan ot bo‘lib,arab tilida sinov,kulfat ma’nolarini anglatadi,o‘zbek tilida esa jismoniy yoki aqliy ish-faoliyat ma’nosini anglatish uchun ishlatiladi.Bu so‘z bilan o‘zbek tilida mehnatsevar qo‘shma so‘zi hosil qilingan”.[3]

Mehnat so‘zining ta’rifini izohli va etimologik lug‘atlarda ko‘rganimizdek, o‘zbek xalqi qadim o‘tmishidan ber ishlatadigan bu tushuncha folklorda ham xuddi shunday ma’nolarni anglatadi.Quyida shu bilar tanishamiz:

1.**Mehnat – halol rizq,baraka va rohat ma’nosida**: “Mehnat – mehnatning tagi rohat”, “Mehnat qilib topganing, qand-u, asal totganing”,”Mehnat baxt keltirar”, ”Mehnatdan kelsa boylik,turmush bo‘lar chiroylik”

2.**Mehnat – axloqiy-tarbiyaviy jihatdan kishining ko‘rki sifatidagi ma’nosi**: ”Dangasaning vaji ko‘p”, ”Mehnat kishini boqar,yalqovlik o‘tga yoqar”, ”Mehnat shuhrat keltirar, yalqovlik – lan’at”

3.**Jismoniy faoliyat va yerg ishlov berish vositasi sifatidagi ma’nosi: ”**Hashar – elga yarashar”, ”Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda”, ”Bo‘lsa hamki, qo‘riq yer, hosil berar to‘ksang ter”

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek lisoniy manzarasida “mehnat” konsepti murakkab va serqirra konsept hisoblanadi. U o‘zida nafaqat ish-harakatni, balki halollik, sabr, jamoaviylik va saodat kabi milliy qadriyatlarni mujassam eta oladi. Askoldov, Stepanov va Safarov kabi olimlarning nazariyalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, mehnat konsepti o‘zbek xalqining madaniyati, o‘tmishi va o‘zligini o‘zida namoyon qiluvchi muhim madaniy kodlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. J. 2. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 672 b.

2.Аскольдов С. А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М.: Academia, 1997. – С. 267–279.

3.Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.

4.Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор нашриёти, 2006. – 92 б.

5.Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры. – М.: Академический проект, 2004. – 992 с.

6.Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. – Тошкент: Фан, 2010. – 132 б.

7.Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.

8.Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. – Oxford: Oxford University Press, 1997. – 464 p.